




# SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2021- yil yanvar-may oyi  
uchun dastlabki  
ma'lumot)*



O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-may oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA **180 129,7** ming. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **32 254,6** ming. AQSh dollariga yoki **21,8 %** ga ko'paydi.




### TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-may, ming. AQSh dollari)

	2020- yil	2021- yil	o'sish sur'ati, % da	jamiqa nisbatan, % da
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	147 875,1	180 129,7	<b>121,8 %</b>	x
<b>Eksport</b> 	83 649,8	85 240,9	<b>101,9 %</b>	100,0
 <u>Tovarlar</u>	82 919,1	84 235,8	101,6	98,8
 <u>Xizmatlar</u>	730,7	1 005,1	137,6	1,2
<b>Import</b> 	64 225,3	94 888,8	<b>147,7 %</b>	100,0
 <u>Tovarlar</u>	64 208,9	94 829,8	147,7	99,9
 <u>Xizmatlar</u>	16,4	59,0	3,6 p.	0,1
 <b>Saldo</b>	19 424,5	-9 647,9	x	x







Ma'lumot uchun: Surxondaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **85 240,9** ming. AQSh dollariga (**1,9 %** ga ko'paydi) va import hajmi **94 888,8** ming. AQSh dollariga (**47,7 %** ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida **-9 647,9** ming. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

## SURXONDARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2021- yil yanvar-may, ming. AQSh dollari)



### Xitoy Xalq Respublikasi

TSA – 66 251,3  
Eksport – 34 197,8  
Import – 32053,5



### Pokiston

TSA – 21 891,2  
Eksport – 16 018,0  
Import – 5 873,2



### Rossiya Federatsiyasi

TSA – 17 818,7  
Eksport – 8 311,7  
Import – 9 507,0



### Oozog'iston

TSA – 17 276,5  
Eksport – 4 036,4  
Import – 13 240,1



### Turkiva

TSA – 13 767,3  
Eksport – 6 385,1  
Import – 7 382,2



### Afg'oniston

TSA – 10 085,1  
Eksport – 9 922,5  
Import – 162,6



### Ukraina

TSA – 8 573,4  
Eksport – 602,7  
Import – 7 970,6



### Germaniya

TSA – 4 958,9  
Eksport – 26,0  
Import – 4 932,9



### Oirg'iz Respublikasi

TSA – 3 882,5  
Eksport – 3294,1  
Import – 588,4



### Tojikiston

TSA – 3 118,2  
Eksport – 1 012,8  
Import – 2 105,4






Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qozog'iston, Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Pokiston, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi, davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.




## 20 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA UCHTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-may)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Pokiston (**10 144,8** ming. AQSh dollari), Afg'oniston (**9 759,9** ming. AQSh dollari), Qirg'iz Respublikasi (**2 705,8** ming. AQSh dollari), shular jumlasidandir. Qolgan 16 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.











Surxondaryo viloyati, jahonning 46 ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (**37,9 %**), Pokistonda (**12,2 %**), Rossiya Federatsiyasida (**10,1 %**), Qozog'istonda (**9,6 %**), Turkiyada (**6,4 %**), Afg'oniston (**6,1 %**), Ukraina (**4,9 %**) va Germaniya (**3,0 %**) qayd etilgan.






## SURXONDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-may, ming. AQSh dollari)

	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>68 305,2</b>	<b>54 636,3</b>	<b>66 251,3</b>
	<i>Eksport</i>	25 830,4	26 193,0	34 197,8
	<i>Import</i>	42 474,9	28 443,3	32 053,5
	<b>Pokiston</b>	<b>22 450,6</b>	<b>11 487,8</b>	<b>21 891,2</b>
	<i>Eksport</i>	18 976,8	10 047,6	16 018,0
	<i>Import</i>	3 473,8	1 440,2	5 873,2
	<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>17 390,8</b>	<b>22 089,2</b>	<b>17 818,7</b>
	<i>Eksport</i>	10 733,9	12 416,4	8 311,7
	<i>Import</i>	6 656,9	9 672,8	9 507,0
	<b>Qozog'iston</b>	<b>21 138,5</b>	<b>12 173,6</b>	<b>17 276,5</b>
	<i>Eksport</i>	12 547,3	3 251,7	4 036,4
	<i>Import</i>	8 591,2	8 921,9	13 240,2
	<b>Turkiya</b>	<b>8 444,7</b>	<b>6 331,3</b>	<b>13 767,3</b>
	<i>Eksport</i>	1 190,9	1 559,3	6 385,1
	<i>Import</i>	7 253,7	4 772,0	7 382,2
	<b>Afg'oniston</b>	<b>21 340,2</b>	<b>19 559,2</b>	<b>10 085,1</b>
	<i>Eksport</i>	21 263,8	19 533,1	9 922,5
	<i>Import</i>	76,4	26,0	162,6
	<b>Ukraina</b>	<b>3 168,1</b>	<b>1 255,2</b>	<b>8 573,4</b>
	<i>Eksport</i>	530,8	346,8	602,7
	<i>Import</i>	2 637,4	908,4	7 970,6
	<b>Germaniya</b>	<b>1 045,8</b>	<b>2 294,2</b>	<b>4 958,9</b>
	<i>Eksport</i>	141,5	80,4	26,0
	<i>Import</i>	904,3	2 213,8	4 932,9
	<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>130,4</b>	<b>4 510,4</b>	<b>3 882,5</b>
	<i>Eksport</i>	30,3	4 033,0	3 294,1
	<i>Import</i>	100,1	477,4	588,4
	<b>Tojikiston</b>	<b>8 185,6</b>	<b>5 626,6</b>	<b>3 118,2</b>
	<i>Eksport</i>	2 756,3	3 641,9	1 012,8
	<i>Import</i>	5 429,3	1 984,6	2 105,4

















## SURXONDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-may, ming. AQSh dollari)


	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	<b>Belgiya</b>	<b>130,4</b>	<b>4 510,4</b>	<b>3 882,5</b>
	<i>Eksport</i>	30,3	4 033,0	3 294,1
	<i>Import</i>	100,1	477,4	588,4
	<b>Eron</b>	3 930,1	748,8	2 170,1
	<i>Eksport</i>	837,6	-	13,1
	<i>Import</i>	3 092,5	748,8	2 157,0
	<b>Belorussiya</b>	4 318,1	981,3	951,4
	<i>Eksport</i>	363,6	300,4	321,8
	<i>Import</i>	3 954,5	680,9	629,6
	<b>Lyuksemburg</b>	-	-	695,2
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	-	-	695,2
	<b>Gretsiya</b>	-	-	574,6
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	-	-	574,6
	<b>Hindiston</b>	1 476,9	667,1	566,0
	<i>Eksport</i>	-	174,1	11,4
	<i>Import</i>	1 476,9	492,9	554,7
	<b>Koreya Respublikasi</b>	10 358,5	841,8	509,8
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	10 358,5	841,8	509,8
	<b>Italiya</b>	326,6	593,9	504,9
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	326,6	593,9	504,9
	<b>Turkmaniston</b>	3 930,3	514,6	446,8
	<i>Eksport</i>	108,4	9,3	56,1
	<i>Import</i>	3 821,9	505,2	390,7
	<b>Buyuk Britaniya</b>	1,9	0,02	369,2
	<i>Eksport</i>	1,9	-	-
	<i>Import</i>	-	0,02	369,2





## SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-may 2021- yil)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>180 129,7</b>	<b>121,8</b>
Termiz sh.	22 550,9	90,9
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	4 142,8	114,4
Angor	4 206,1	91,1
Bandixon	1 025,8	26,7
Boysun	3 059,3	81,6
Denov	16 232,9	98,8
Jarqo'rg'on	17 149,0	97,6
Qumqo'rg'on	4 980,3	105,0
Qiziriq	14 168,3	4,3 m.
Muzrabot	25 299,0	3,0 m
Sariosiyo	14 033,7	113,8
Termiz	27 974,6	144,4
Uzun	4 919,5	110,0
Sherobod	12 471,4	98,1
Sho'rchi	4 780,8	75,5

**Eng yuqori hajm,**  
ming. AQSh dollari

**Termiz - 27 974,6**

**Muzrabot – 25 299,0**

**Termiz sh. – 22 550,9**

**Eng quyi hajm,**  
ming. AQSh dollari

**Oltinsoy – 4 142,8**


**Boysun – 3 059,3**

**Bandixon – 1 025,8**

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Termiz tumani **15,5 %** ulush bilan **27 974,6** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Bandixon tumani **0,6 %** ulush bilan **1 025,8** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.






Surxondaryo viloyati tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'nggi yillarda biroz o'zgardi.

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2021- yilning yanvar-may oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **29,0 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi **3,1 %** ga ko'payib 2019- yilga nisbatan ulushi **0,8 %** ga kamaygan.

### SURXONDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar-may oylarida 2020- yilga nisbatan **3,1 %** ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi **71,0 %** ni tashkil etdi.







## SURXONDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI


(2021- yil yanvar-may, ming. AQSh dollari)



Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-may holatiga **52 247,8** ming. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport – **17 816,0** ming. AQSh dollariga yetgan bo‘lsa, import – **34 431,8** ming. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**34,1 %**), Qozog‘iston (**33,1 %**), Ukraina (**16,4 %**), Qirg‘iz Respublikasi (**7,4 %**) va Tojikiston (**6,0%**) davlatlari bilan qayd etildi.





## SURXONDARYO VILOYATI EKSPORTI


(2021- yil yanvar-may)



Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatning eksportyorlari soni **193** tani tashkil etib, ular tomonidan **85 240,9** ming. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan **1,9** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

### XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-may, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **98,8** % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**53,1** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**36,5** %) va yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyosi (**7,1** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.





## SURXONDARYO VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-may, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
<b>Jami eksport</b>	<b>83 649,8</b>	<b>85 240,9</b>	<b>85,6</b>	<b>101,9</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	44 667,6	31 086,9	73,8	69,6	53,4	36,5
Ichimliklar va tamaki	65,0	287,1	-	4,4 m.	0,1	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4 778,6	6 092,0	141,9	127,5	5,7	7,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	27,8	14,0	44,9	50,2	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1 054,9	-	163,7	-	1,3	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	225,0	72,2	13,0 m.	32,1	0,3	0,1
Sanoat tovarlari	29 903,1	45 284,6	94,5	151,4	35,7	53,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	18,0	193,1	16,7	10,7 m.	-	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	2 179,0	1 206,0	18,8 m.	55,3	2,6	1,4
Xizmatlar	730,7	1 005,1	59,3	137,6	0,9	1,2







## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-may)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	28 127,9	72,0
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2 218,1	51,8
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	334,4	165,1
Tirik hayvonlar, 03 bo'limiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	244,1	54,8
Xayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	7,4	6,9
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar malyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va ulardan tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar	1,4	71,2
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	0,4	0,2
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	287,1	5,7 m.
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindilari (ip kalava va mato holatiga keltirilmagan)	4 591,4	2,6 m.
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	1202,9	3,9 m.
Xayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	198,9	11,4
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom-ashyo va mineral xomashyo (ko'mir,neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	98,9	10,4
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
O'g'itlar (272 guruhga kiritilganlardan tashqari)	27,4	-
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari;hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	22,8	26,5
Bo'yoqlar, taninlar va bo'yoqlar	21,9	11,2 m.
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	0,02	5,9





## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-may)




XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	42 222,0	143,7
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tafsiflanmagan	1 793,0	3,8 m.
Metaldan tayyorlangan buyumlar boshqa joyda tafsiflanmagan	1 260,0	95,0 m.
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	6,6	48,6
Mantar va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	3,1	-
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,05	0,3
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomashinalar (xavfsizlik yostiqlarini ham o'z ichiga olgan holda)	171,2	17,1 m.
Muayyan tarmoqlar uchun maxsus ishlab chiqarilgan mashinalar	18,0	2,6 m.
Sanoat va mashina qismlari uchun ixtisoslashtirilgan bo'lmagan mashina va uskunalar	1,9	2,7 m.
Energiya generatori mashinalari va asbob - uskunolari	2,0	8,8 m.
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	1 120,2	60,3
Poyabzal	51,9	61,1
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	25,5	21,3
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4,6	-
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari boshqa joyda tavsiflanmagan	3,6	3,4
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	0,2	-
<b>Xizmatlar</b>		
Transport xizmatlari	437,7	162,3
Moliyaviy xizmatlar	291,2	104,7
Sayohat	198,8	2,6 m.

Shunga boshqa biznes xizmatlari

77,4

71,8








## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)



So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019- yilning yanvar-mayidagi **28,9 %** dan 2021- yilning yanvar-mayida **20,9 %** ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **79,1 %** ni tashkil etdi.



**VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-may, % da)**

2021- yilning yanvar-may oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining **40,1 %**), Pokiston (**18,8 %**), Afg'oniston (**11,6 %**), Rossiya Federatsiyasi (**9,8 %**), Turkiya (**7,5 %**), Qozog'iston (**4,7 %**) va Qirg'iz Respublikasi (**3,9 %**) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **96,4** foizni tashkil etmoqda.







## SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-may, yillar kesimida)




Davlatlar	Ming. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Xitoy Xalq Respublikasi	26 193,0	34 197,8	101,4	130,6	1	1
Pokiston	10 047,6	16 018,0	52,9	159,4	4	2
Afg'oniston	19 533,1	9 922,5	91,9	50,8	2	3
Rossiya Federatsiyasi	12 416,4	8 311,7	115,7	66,9	3	4
Turkiya	1 559,3	6 385,1	130,9	4,1 m.	8	5
Qozog'iston	3 251,7	4 036,4	25,9	124,1	7	6
Tojikiston	4 033,0	3 294,1	133,2 m.	81,7	5	7
Qirg'iz Respublikasi	3 641,9	1 012,8	132,1	27,8	6	8
Ukraina	346,8	602,7	65,3	173,8	10	9
AQSH	95,3	323,4	131,6	3,4 m.	18	10





## SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar-may)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>85 240,9</b>	<b>101,9</b>
Termiz sh.	2 729,7	22,4
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	3 023,1	93,2
Angor	3 634,6	94,2
Bandixon	1 017,8	68,2
Boysun	2 421,3	84,7
Denov	9 989,9	131,4
Jarqo'rg'on	12 407,5	103,2
Qumqo'rg'on	2 754,3	61,1
Qiziriq	1 176,7	43,8
Muzrabot	4 522,6	151,9
Sariosiyo	10 583,3	167,8
Termiz	11 718,1	188,1
Uzun	4 235,8	114,7
Sherobod	11 326,7	124,9
Sho'rchi	3 033,7	82,0

**Eng yuqori hajm,**  
ming. AQSh dollari

**Jarqo'rg'on - 12 407,5**

**Termiz - 11 718,1**

**Sherobod – 8 646,6**

**Eng quyi hajm,**  
ming. AQSh dollari

**Boysun – 2 421,3**

**Qiziriq – 1 176,7**

**Bandixon – 1 017,8**

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Jarqo'rg'on tumani **14,6 %** ulush bilan **12 407,5** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat eksporti tarkibida eng quyi ulushni Bandixon tumani **1,2 %** ulush bilan **1 017,8** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Surxondaryodagi meva-sabzavot sektori mamlakat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **28 589,6** ming. AQSh dollari qiymatli **38 123,3** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan, **25,5** % ni tashkil etdi. Buning asosida **25 182,0** ming AQSh dollari miqdorida **34793,7** tonna sabzavot, shuningdek **2 012,8** ming AQSh dollari miqdorida **2 264,4** tonna meva va rezavorlar eksport qilindi. 2020- yil davri mos ravishda **29,6** % ni va meva va rezavorlarning pasayish darajasi **56,0** % ni tashkil etdi

## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2021- yil yanvar-may)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston, Afg'oniston, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston hamda Tojikiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, 2021- yil yanvar-may oyida meva va sabzavotlarning umumiy eksportdagi ulushi **33,5** foizni tashkil etdi.







## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar-may)



Davlatlar	tonna	ming. AQSh dollari	ulushi, % da *
<b>Pokiston</b>	5 796,6	12 052,7	42,2
<b>Afg'oniston</b>	8 634,1	6 724,6	23,5
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	7 899,6	4 912,3	17,2
<b>Qozog'iston</b>	10 357,7	2 499,5	8,7
<b>Ukraina</b>	3 023,0	545,1	1,9
<b>Tojikiston</b>	862,3	441,5	1,5
<b>Belarussiya</b>	965,2	321,8	1,1
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	115,2	288,1	1,0
<b>AQSH</b>	64,3	282,2	1,0
<b>Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)</b>	66,4	115,4	0,4
<b>Ozarbajjon</b>	105,0	109,8	0,4
<b>Ispaniya</b>	21,6	84,9	0,3
<b>Polsha</b>	28,5	67,3	0,2
<b>Turkmaniston</b>	90,2	40,1	0,1
<b>Gruziya</b>	20,5	35,0	0,1
<b>Boshqa davlatlar</b>	73,2	69,4	0,2

\* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **42,2 %**), bu Afg'onistonga eksport hajmidan **18,7** baravar ko'pdir.





## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda **43 946,9** ming. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **51,6 %** ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **35,8 %** ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (**90,2 %**), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**5,0 %**) asosiy ulushni egallagan.


### TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-may, ming. AQSh dollari)



	2019- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Mahsulot nomi</b>	<b>33 343,1</b>	<b>32 351,8</b>	<b>43 946,9</b>
 <b>Paxtadan yigirilgan ip</b>	29 197,2	29 327,1	39 624,7
 <b>Paxta matolari</b>	2 357,2	15,9	2 186,6
 <b>Ipak va ipak mahsulotlari</b>	1 638,5	1 105,1	906,5
 <b>Tayyor trikotaj va tikuvchilik buyumlari</b>		1 857,7	1 120,2
 <b>Vatka, kigiz va to'quv bo'lmagan maeriallar, argonlar</b>	-	1,1	66,0
 <b>Boshqa mahsulotlar</b>	-	-	37,3
 <b>Boshqa to'qimachilik mahsulotlari</b>	29,2	19,8	5,5
 <b>Gilamlar</b>	5,0	23,8	0,1
 <b>Trikotaj matolari</b>	-	1,1	-





## DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-may, ming. AQSh dollari)



	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	24 503,8	26 031,3	34 181,6
Pokiston	2 549,2	2 574,7	3 414,0
Rossiya Federatsiyasi	4 016,4	790,8	2 627,5
Turkiya	912,9	861,4	2 567,0
Qozog‘iston	-	-	759,3
Tojikiston	5,0	99,1	300,0
Ukraina	-	-	57,2
Qirg‘iz Respublikasi	-	1793,7	28,8
Hindiston	-	174,1	11,4
Afg‘oniston	29,2	26,5	-
Belarussiya	25,1	-	-
Vetnam	520,3	-	-
Eron	781,3	-	-

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (**27 768,0** ming. AQSh dollari – **80,6 %**), Rossiya Federatsiyasi (**2 471,4** ming. AQSh dollari – **7,1 %**) va Pokiston (**2 082,1** ming. AQSh dollari – **6,0 %**) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.








## SURXONDARYO VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-may)



2021- yilning yanvar-may oylarida import hajmi **94 888,8** ming. AQSh dollarini va 2020- yilga nisbatan **47,7 %** ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, sanoat tovarlari (**40,7 %**), mashinalar va transport asbob-uskunalari (**35,1 %**) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**14,1 %**) hisobiga to'g'ri keldi.

### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-may, ulushi, % da)



Tovarlarning importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning yanvar-mayida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **30 620,9** ming. AQSh dollariga kamayib, **94 829,8** ming AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **59,0** ming. AQSh dollariga yetdi.





## SURXONDARYO VILOYATI XSST BOYICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-may, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
<b>Jami import</b>	<b>64 225,3</b>	<b>94 888,8</b>	<b>58,7</b>	<b>147,7</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	10 882,8	13 361,7	70,0	122,8	17,0	14,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3 891,0	3 375,9	70,1	86,8	6,1	3,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 112,5	625,0	4,1 m.	56,2	1,7	0,7
Hayvon va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	154,6	1 072,6	15,8	6,9 m.	0,2	1,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2 552,0	1 391,4	97,0	54,5	4,0	1,5
Sanoat tovarlari	20 374,8	38 602,5	138,7	189,5	31,7	40,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	22 650,7	33 293,7	39,5	147,0	35,3	35,1
Turli xil tayyor buyumlar	2 590,7	3 107,0	21,4	119,9	4,0	3,3
Xizmatlar	16,4	59,0	50,5	3,6 m.	-	0,1





## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-may)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	7 028,7	3,8 m.
Tirik hayvonlar, 03-bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	3 382,5	3,1 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 932,7	189,8
Hayvonlarga ozuqa (ishlov berilmagan donalardan tashqari)	518,0	8,8
Go'sht va go'sht mahsulotlari	348,4	43,6
Turli xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlari	70,4	88,9
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	51,2	46,6 m.
Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	29,8	48,9
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Probka va yog'och-taxtalar	2 116,2	98,3
Xayvonlar va o'simliklardan olinadigan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tavsiflanmagan	838,1	3,2 m.
56-bo'limga kiritilganlardan tashqari o'g'it xomashyosi va mineral xom ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	306,0	50,0
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	83,2	-
Tabiiy kauchuk (shu jumladan sintetik kauchuk)	28,0	-
Pulpa va chiqindi qog'oz	4,5	-
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	625,0	56,2
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Kimyoviy mahsulotlar va boshqalar	365,3	105,4
Tibbiy va farmatsevtika mahsulotlari	309,5	104,2
Birlamchi shakldagi plastmassalar	239,3	36,5
Organik kimyoviy moddalar	162,6	95,6
Birlamchi bo'lmagan plastmassalar	142,8	2,1 m.
Norganik kimyoviy moddalar	116,4	5,8 m.
O'g'itlar (272 guruhga kiritilganlardan tashqari)	37,2	4,3
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	18,3	39,7
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga tayyorgarlik, ilolash va yuvish vositalari	0,01	0,01







## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-may)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	31 995,4	2,0 m.
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 977,6	133,2
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall buyumlar	1 815,8	2,4 m.
Probka daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	883,4	5,6 m.
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	397,4	83,0
To'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar va boshqalar	386,1	55,5
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	135,9	121,1
Rangli metallar	10,9	3,0 m.
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	23 154,9	2,2 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	6 536,6	72,3
Avtomobililar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	2 937,3	127,9
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunolari	331,7	87,9
Metallni qayta ishlash uchun mashinalar	151,0	52,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan elektr mashinalari ,apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari (boshqa toifalarga kiritilmagan elektr maishiy texnika elektr bo'lmagan qismlari)	140,2	113,0
Kanselariya mashinalari ishlab chiqaruvchi mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uskunolari	37,1	80,2
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish aparaturalari va uskunolari	3,0	4,1
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari boshqa joyda tavsiflanmagan	1 624,6	10,6 m.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	1 080,6	58,9
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	230,0	43,2
	123,2	3,5 m.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	29,6	2,3 m.
Poyabzal	10,5	79,1
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	8,6	76,8







MDH va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushi 36,3:63,7 nisbatni tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-may oylari yakuni bo'yicha Surxondaryo viloyati tomonidan **38** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Importning uchdan bir qismi **80 959,5** ming. AQSh dollarini tashkil qildi. Shundan Xitoy Xalq Respublikasi (jami import 33,8 % ulushi), Qozog'iston (14,0 %), Rossiya Federatsiyasi (10,0 %), Ukraina (8,4 %), Turkiya (7,8 %), Pokiston (6,2 %), Germaniya (5,2 %) kabi yirik hamkor davlatlarga to'g'ri keladi.



**VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR NING ULUSHI**  
(2021- yil yanvar-may, % da)





## SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-may, yillar kesimida)



Davlatlar	Ming. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Xitoy Xalq Respublikasi	28 443,3	32 053,5	67,0	112,7	1	1
Qozog'iston	8 921,9	13 240,2	103,8	148,4	3	2
Rossiya Federatsiyasi	9 672,8	9 507,0	145,3	98,3	2	3
Ukraina	908,4	7 970,6	34,4	8,8 m.	8	4
Turkiya	4772,0	7 382,2	65,8	154,7	4	5
Pokiston	1 440,2	5 873,2	41,5	4,1 m.	7	6
Germaniya	2 213,8	4 932,9	2,4 p.	2,2 m.	5	7
Belgiya	-	2 965,2	-	-	39	8
Eron	748,8	2 157,0	24,2	2,9 m.	10	9
Tojikiston	1 984,6	2 105,4	36,6	106,1	6	10








## SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2021- yil yanvar-may)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>94 888,8</b>	<b>147,7</b>
Termiz sh.	19 821,3	157,1
tumanlar:		
Oltinsoy	1 119,7	3,0 p.
Angor	571,5	75,3
Bandixon	8,0	0,3
Boysun	638,0	71,7
Denov	6 242,9	70,7
Jarqo'rg'on	4 741,5	85,4
Qumqo'rg'on	2 226,0	9,5 p.
Qiziriq	12 991,6	21,7 p.
Muzrabot	20 776,4	3,7 p.
Sariosiyo	3 450,4	57,3
Termiz	16 256,5	123,7
Uzun	683,7	88,0
Sherobod	1 144,8	31,4
Sho'rchi	1 747,1	66,3

**Eng yuqori hajm,**  
ming. AQSh dollari

**Muzrabot - 20 776,4**

**Termiz sh. – 19 821,3**

**Termiz - 16 256,5**

**Eng quyi hajm,**  
ming. AQSh dollari

**Boysun - 683,7**

**Angor - 571,5**

**Bandixon - 8,0**

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Muzrabot tumani **21,9** % ulush bilan **20 776,4** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Bandixon tumani **0,01** % ulush bilan **8,0** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

